Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 373.2
PEDAGOGIKA

# O'QUVCHLARDA ASSOTSIATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN FAOLIYATINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Zulfiya Nurmaxamatovna Ortiqova*
*Farg'ona davlat universiteti. p.f.b.f.d (PhD)*
✉ zn.ortiqova@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

mazkur maqolada kichik yoshdagi bolalarda assotsiativ tafakkurni shakllantirishda o'yin faoliyatining o'rni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Assotsiativ tafakkur tushunchalar, hodisalar va tajribalar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash hamda mazmunli aloqalar hosil qilish jarayoni sifatida yoritiladi. O'yin bolalarning bilish jarayonlarini faollashtiruvchi, ularni ijodiy fikrlashga undovchi va muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishga yo'naltiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida asoslanadi. Tadqiqotda assotsiativ tafakkurning nazariy asoslari, o'yinning psixologik-pedagogik imkoniyatlari hamda ta'lim jarayoniga o'yin asosida yondashuvni integratsiya qilish usullari tahlil etiladi. Natijalar o'yin asosidagi faoliyat bolalarning kognitiv moslashuvchanligi, xotirasi, nutqi va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar**

assotsiativ tafakkur, o'yin faoliyati, maktabgacha ta'lim, bilish jarayoni, ijodiy fikrlash, muammoli vaziyat, kognitiv rivojlanish.

DOI: 10.5281/zenodo.21743763

## KIRISH

Kichik yosh davri inson tafakkurining eng faol shakllanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan 6–10 yosh oralig'ida bola idrok, xotira, tasavvur va tafakkur jarayonlarini tizimli ravishda rivojlantira boshlaydi. Bu davrda shakllangan intellektual mexanizmlar keyingi o'quv bosqichlaridagi muvaffaqiyatning poydevorini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, assotsiativ tafakkurni rivojlantirish masalasi boshlang'ich ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Assotsiativ tafakkur – bu shaxsning turli hodisalar, tushunchalar, obrazlar va tajribalar o'rtasida mantiqiy hamda mazmuniy bog'lanishlar o'rnatish qobiliyatidir. Bola yangi bilimni o'zlashtirish jarayonida uni mavjud bilimlar tizimi bilan taqqoslaydi, bog'laydi va umumlashtiradi. Agar yangi ma'lumot ilgari shakllangan tajriba bilan aloqador holda taqdim etilsa, u chuqurroq anglanadi va uzoq muddatli xotirada mustahkamlanadi. Demak, assotsiativ tafakkur bilimlarni mexanik yodlash emas, balki ularni ongli ravishda tizimlashtirish va qayta ishlash mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik yoshdagi bolalar abstrakt tushunchalarga nisbatan konkret-obrazli fikrlashga moyil bo'ladilar. Ular real predmetlar, tasvirlar va harakatlar orqali bilimni tezroq o'zlashtiradilar. Shuning uchun ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik, tajriba, o'yin va interaktiv metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'yin faoliyati bola psixikasining tabiiy ehtiyoji bo'lib, u orqali bolalar atrof-muhitni o'rganadi, ijtimoiy rollarni sinab ko'radi va tafakkurini kengaytiradi. O'yin jarayoni assotsiativ tafakkur rivojlanishining tabiiy laboratoriyasi vazifasini bajaradi. Bola o'yin davomida predmetlarga yangi ma'no beradi, bir obrazni boshqasi bilan bog'laydi, muammoli vaziyatlarni hal qiladi. Masalan, oddiy tayoq "mikrofon", "ot", yoki "sehrli tayoqcha"ga aylanishi mumkin. Bu jarayonda

bola real predmet va xayoliy obraz o‘rtasida bog‘lanish o‘rnatadi, ya’ni assotsiativ fikrlash mexanizmini ishga soladi. Ramziy o‘yinlar, rolli o‘yinlar va konstruktorlik faoliyati bolalarda sabab-oqibat aloqalarini tushunish, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yin faoliyatining yana bir muhim jihati shundaki, u bolaning emotsional sohasini ham faollashtiradi. Emotsional jihatdan boy tajriba bilan o‘zlashtirilgan bilim mustahkamroq saqlanadi. Ijobiy his-tuyg‘ular bilan kechgan o‘quv jarayoni xotira va tafakkur samaradorligini oshiradi. Shuningdek, guruhli o‘yinlar kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi, boshqalar fikrini inobatga olish va muloqot qilishni o‘rgatadi.

Assotsiativ tafakkurni rivojlantirishda o‘yinlarning bir necha turlari samarali hisoblanadi. Qurilish o‘yinlari rejalashtirish va fazoviy tafakkurni mustahkamlasa, mantiqiy boshqotirmalar tahlil va sintez jarayonlarini faollashtiradi. Tasviriy faoliyat – rasm chizish, ranglar bilan ishlash – obrazlar o‘rtasidagi ijodiy bog‘lanishlarni kuchaytiradi. Rolli o‘yinlar esa ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish orqali bolaning ijtimoiy-intellektual tajribasini boyitadi. Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘yin faoliyati raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashib bormoqda. Geymifikatsiya, interaktiv platformalar va kengaytirilgan reallik elementlari o‘quvchini faol bilish subyekti sifatida jalb etadi. Raqamli o‘yin muhiti bolaning tasavvurini kengaytiradi, murakkab tushunchalarni vizual va tajribaviy tarzda anglash imkonini beradi. Biroq bu vositalar maqsadga yo‘naltirilgan holda qo‘llanilgandagina samarali natija beradi.

Tajriba va kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam ravishda o‘yin asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida bolalarning fikrlash moslashuvchanligi, ijodiy yondashuvi va muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Ular bir vaziyatni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga, muqobil yechimlar topishga va o‘z fikrini asoslashga moyil bo‘ladilar. Bu esa divergent tafakkur rivojlanishining muhim ko‘rsatkichidir. Shu bilan birga, assotsiativ tafakkurni rivojlantirish jarayoni tizimli yondashuvni talab etadi. O‘yin faoliyati tasodifiy emas, balki pedagogik maqsad asosida rejalashtirilishi zarur. O‘qituvchi o‘yin mazmunini o‘quv mavzusi bilan uyg‘unlashtirishi, refleksiya bosqichini tashkil etishi va bolalarning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlashi lozim. Faqat shundagina o‘yin rivojlantiruvchi vosita sifatida to‘liq namoyon bo‘ladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘yin faoliyati kichik yoshdagi bolalarda assotsiativ tafakkurni rivojlantirishning tabiiy va samarali mexanizmidir. U bolalarning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini uyg‘un holda ta’minlaydi. Assotsiativ bog‘lanishlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘yin metodlari bolalarda chuqur anglash, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy ta’limda o‘yin va innovatsion texnologiyalar integratsiyasi esa ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Kelgusida o‘yin asosidagi metodikalarning uzoq muddatli ta’sirini empirik tadqiq etish, turli yosh guruhlarida assotsiativ tafakkur rivoji dinamikasini aniqlash va innovatsion pedagogik modellarning samaradorligini kompleks baholash dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Горячев В.В. О роли ассоциации в отечественных исследованиях мышления // Мир науки. Педагогика и психология. – 2021. – Т. 9, № 6. – п. 47.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь // Собрание сочинений: В 6 т. Т. 2. – М., 1982. – 142 с.
3. Xudoyqulov A.X. (2018). Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari. Monografiya. Toshkent. 180 b.
4. Mavlonova R. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. (Boshlang‘ich ta’lim metodik asoslari) 240 b.